Bayjanova Oqila Iskandarovna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Toshkent shahri; e-mail: oqilabayjanova89@gmail.com; UO‘K: 81’42:32)

DIPLOMATIK DISKURSDA PRESUPOZISIYANINING ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada diplomatik diskursda presuppozitsiyaning o‘rni va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Presuppozitsiyaning diplomatik muloqotda axborotni bevosita ifodalamasdan yetkazish, fikrni yumshatish, muayyan pozitsiyani legitimlashtirish va kommunikativ ta’sirni kuchaytirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, diplomatik nutqda presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi lingvistik vositalar hamda ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari presuppozitsiya diplomatik diskursning yashirin ma’no va strategik kommunikatsiyani shakllantiruvchi muhim pragmatik mexanizm ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *diplomatik diskurs, presuppozitsiya, pragmatika, lingvopragmatika, kommunikativ strategiya, yashirin ma’no, diplomatik muloqot, nutq akti, pragmatik ta’sir, kommunikativ funksiya.*

РОЛЬ ПРЕСУППОЗИЦИИ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются роль и прагматические особенности пресуппозиции в дипломатическом дискурсе. Освещается значение пресуппозиции в дипломатической коммуникации как средства передачи информации без её непосредственного выражения, смягчения высказывания, легитимации определённой позиции и усиления коммуникативного воздействия. Кроме того, на основе примеров рассматриваются лингвистические средства, актуализирующие пресуппозицию в дипломатической речи, а также их коммуникативно-прагматические функции. Результаты исследования показывают, что пресуппозиция является важным прагматическим механизмом формирования скрытого смысла и стратегической коммуникации в дипломатическом дискурсе.*

Ключевые слова: *дипломатический дискурс, пресуппозиция, прагматика, лингвопрагматика, коммуникативная стратегия, скрытый смысл, дипломатическая коммуникация, речевой акт, прагматическое воздействие, коммуникативная функция.*

THE ROLE OF PRESUPPOSITION IN DIPLOMATIC DISCOURSE

Annotation. *This article analyzes the role and pragmatic features of presupposition in diplomatic discourse. It highlights the significance of presupposition in diplomatic communication as a means of conveying information without expressing it directly, mitigating statements, legitimizing a particular position, and enhancing communicative impact. Furthermore, the study examines, through relevant examples, the linguistic devices that trigger presupposition in diplomatic speech and their communicative and pragmatic functions. The findings demonstrate that presupposition serves as an important pragmatic mechanism for constructing implicit meaning and strategic communication in diplomatic discourse.*

Keywords: *diplomatic discourse, presupposition, pragmatics, linguopragmatics, communicative strategy, implicit meaning, diplomatic communication, speech act, pragmatic impact, communicative function.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida XX asrning 80–90-yillaridan buyon lingvistik presuppozitsiyaning qator masalalari yuzasidan fikr bildirib kelinmoqda. Jumladan, N.Mahmudov, A.Nurmonov, U.Rahimov, M.Hakimov, Z.Burxonov, D.Lutfullayeva, M.Haynazarova va boshqalar ilmiy tadqiqotlarida, asosan, morfologik va sintaktik sath birliklari presuppozitsion tahlilga tortilgan [1:28–31-b.]. Chunonchi, muloqot jarayonida so‘zlovchi nutqiy ta’sirchanlik yoki shakliy tejamlilikka erishish maqsadida har doim ham fikrni to‘liq ifodalamaydi. Ammo tilshunoslar e’tiroficha: “Presuppozitsiya matnni semantik murakkablashtiradi. Bunday vaqtda ayrim so‘z yoki grammatik shakl orqali ifodalangan propozitsiya o‘zining eng ixcham shakliga ega bo‘ladi. So‘zlovchi va tinglovchi uchun uning tushunarli bo‘lishida presuppozitsiya yordamga keladi [2:113-b.]. Demak, tilda ma’lum bir presuppozitsion signallar yoki ishora vositalarining mavjudligi ushbu pragmatik hodisaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi kungacha o‘zbek tilida presuppozitsiyaga yo‘l ochuvchi tashqi signallar xususida turlicha qarashlar mavjud bo‘lgan. Jumladan, tasdiq gaplarda inkor presuppozitsiyaga ishora qiluvchi lisoniy signallarni tadqiq etgan D.Lutfullayeva leksik-grammatik va sintaktik vositalarni bir-biridan farqlaydi [4:27-b.]. U.Rahimov esa tadqiqotida presuppozitsiya leksik birliklarning sinonimik, omonimik, antonimik xususiyatlari asosida belgilanishini qayd etib, lingvistik (morfologik,

sintaktik, porosodik) hamda ularga yordamchi vositalar-ekstralingvistik vositalarni alohida ko‘rsatib o‘tadi va quyidagi guruhlarga ajratadi [5:29-b.].

Morfologik vositalar: so‘z turkumlari (ot so‘z turkumi va undagi kategoriyalar, sifat, olmosh, ravish, yuklama va kelishiklar).

Sintaktik vositalar: so‘roq gaplar, o‘xshatish qurilmali gaplar va so‘z tartibi.

Porosodik vositalar. Ekstralingvistik vositalar: hayotda mavjud bo‘lgan turli vaziyatlar, paralingvistik vositalar va sotsial vositalar.

Olim, shuningdek, bunday presuppozitsion signallar ichida *yuklamalar, ko‘makchilar, olmoshlar, ravishlar, kelishiklar, o‘xshatishli qurilmalar, ritorik so‘roq gaplar, ko‘pincha, so‘roq olmoshlari bilan tuzilgan so‘roq gaplar* aktivligi bilan ajralib turishi to‘g‘risida so‘z yuritgan. Mazkur nazariy qarashlar presuppozitsiyani faqat umumiy til hodisasi sifatida emas, balki muayyan diskurs turlarida, xususan, diplomatik diskursda ham maxsus pragmatik vazifa bajaruvchi vosita sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Diplomatik bayonot, murojaat, nota, memorandum, rezolutsiya va rasmiy nutqlarda *“yana bir bor ta’kidlaydi”, “chuqur xavotir bildiradi”, “tomonlarni vazminlikka chaqiradi”, “xalqaro huquq normalariga rioya etish zarurligini qayd etadi”* kabi birliklar bevosita axborot berish bilan cheklanmay, muayyan siyosiy pozitsiya, mavjud muammo, avvalgi majburiyat yoki umumiy diplomatik qadriyatlarni presuppozitsiya qiladi.

Tahlil va natijalar. O‘zbek tilshunosligida aniqlangan morfologik, sintaktik, prosodik va ekstralingvistik presuppozitsion signallar diplomatik diskurs tahlili uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. “Tomonlarni vazminlikka chaqiramiz” kabi sintaktik qurilmalar esa vaziyatda keskinlik mavjudligi yoki uning yuzaga kelish ehtimolini yashirin tarzda ifodalaydi. Demak, diplomatik diskursda presuppozitsiya siyosiy fikrni ochiq ziddiyatga kirmasdan yetkazish, tanqidni yumshatish, davlat pozitsiyasini legitimlashtirish, xalqaro huquqiy me’yorlarga tayanish va muloqotda konsensus yaratish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Binobarin, presuppozitsiyaning diplomatik diskursdagi roli uning lisoniy signal sifatidagi xususiyatlari bilan cheklanmaydi. U diplomatik kommunikatsiyada strategik-pragmatik mexanizm sifatida ishlaydi: aytilmagan ma’noni anglatadi, rasmiy pozitsiyani ehtiyotkorlik bilan bildiradi, siyosiy mas’uliyatni bilvosita taqsimlaydi va tomonlar o‘rtasidagi muloqot maydonini saqlab qoladi. O‘zbek tilidagi rasmiy diplomatik matnlarda presuppozitsiya ko‘pincha “chuqur xavotir bildiradi”, “vazminlikka chaqiramiz”, “yana bir bor tasdiqlaydi”, “xalqaro huquq normalari asosida”, “doimo qo‘llab-quvvatlaydi”, “mamnuniyat bilan qayd etildi”, “muhim qadam”, “izchil tarafdor” kabi birliklar orqali yuzaga chiqadi. Bu birliklar tashqi tomondan oddiy diplomatik iboralardek ko‘rinsa-da, ularning ichida muayyan yashirin axborot mavjud bo‘ladi. Ya’ni, matnda aytilayotgan holat bevosita izohlanmaydi, balki tinglovchi tomonidan oldindan ma’lum va qabul qilingan haqiqat sifatida anglashiladi. Masalan, “*O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2025-yil 13-iyundagi bayonotida Yaqin Sharqdagi vaziyat yuzasidan “chuqur xavotir bildiradi” degan ibora qo‘llangan*” [6;13-b.]. Bu yerda asosiy axborot O‘zbekistonning xavotir bildirayotganidir. Biroq ushbu ibora ortida bir necha presuppozitsion ma’no mavjud: birinchidan, vaziyat oddiy emas, balki xavotirga sabab bo‘ladigan darajada jiddiy; ikkinchidan, bu holat mintaqaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin; uchinchidan, O‘zbekiston bu jarayonga befarq emas. Demak, “xavotir bildirish” diplomatik nutqda faqat hissiy munosabat emas, balki siyosiy ogohlantirish vazifasini ham bajaradi. Xuddi shu bayonotda *…Barcha tomonlarni to‘liq vazminlikka, harbiy harakatlarni darhol to‘xtatishga va nizoni siyosiy-diplomatik yo‘l bilan hal etishga chaqiramiz…*, ushbu matnda “vazminlikka ... chaqiramiz” shakli ham ishlatilgan. Bu birlik sintaktik-pragmatik presuppozitsiyani yuzaga chiqaradi. Chunki “chaqirmoq” fe’li o‘z-o‘zidan tomonlarda ma’lum bir harakat qilish yoki undan tiyilish imkoniyati borligini anglatadi. Bunda yashirin ma’no shuki, tomonlar vaziyatni yanada keskinlashtirishi mumkin, shu sababli ulardan ehtiyotkorlik talab qilinmoqda. Diplomatik jihatdan esa bu ibora ochiq ayblovsiz, ammo aniq ogohlantirish bilan berilgan. Ya’ni, hech bir tomon bevosita qoralab tashlanmaydi, lekin mas’uliyat ularning zimmasida ekanligini bildiradi. O‘zbekiston TIVning 2025-yil 9-oktabrdagi bayonotida *…O‘zbekiston Respublikasi AQSH Prezidenti Donald Trampning bevosita ko‘magida G‘azo sektorida o‘t ochishni to‘xtatish va garovga olinganlarni ozod etish bo‘yicha erishilgan kelishuvni olqishlaydi…*[8,9]. Ushbu misolda “Olqishlamoq” fe’li faktiv-presuppozitsion xususiyatga ega. Chunki u kelishuv mavjudligini va bu kelishuv ijobiy hodisa sifatida baholanayotganini bildiradi. Bu yerda yashirin ma’no shundan iboratki, avval zo‘ravonlik, garovga olish, gumanitar inqiroz kabi muammolar mavjud bo‘lgan; endi esa ularni yumshatish uchun muhim imkoniyat paydo bo‘lgan. Diplomatik jihatdan bu ibora tomonlarni qo‘llab-quvvatlash, tinchlik jarayonini rag‘batlantirish va xalqaro sa’y-harakatlarni ijobiy baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, bayonotda *“O‘zbekiston doimo xalqaro huquq me’yorlari ... asosida ... tinchlik o‘rnatilishini qo‘llab-quvvatlaydi”* [9:149-b.]. degan

mazmun ham berilgan. Bu yerda "doimo" ravishi davomiylik presuppozitsiyasini hosil qiladi. Ya'ni, O'zbekistonning bu pozitsiyasi vaqtinchalik emas, balki avvaldan mavjud bo'lgan izchil tashqi siyosiy yo'nalish sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, "xalqaro huquq me'yorlari" birikmasi tinchlik jarayoni subyektiv kelishuvga emas, umum tan olingan huquqiy asoslarga tayanishi kerakligini bildiradi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, o'zbek diplomatik matnlarida presuppozitsiya bir necha asosiy shaklda namoyon bo'ladi. Birinchisi – xavotir bildiruvchi birliklar: "*chuqur xavotir*", "*jiddiy xavotir*", "*xavotir uyg'otmoqda*". Bular mavjud vaziyatning salbiy yoki tahlikali ekanini yashirin tarzda bildiradi. Ikkinchisi – chaqiriq bildiruvchi birliklar: "*vazminlikka chaqiramiz*", "*tiyilishga chaqiramiz*", "*muloqot yo'li bilan hal etish*". Bular tomonlarda muammoni kuchaytirish yoki yumshatish imkoniyati borligini ko'rsatadi. Uchinchisi – davomiylik va izchillikni bildiruvchi birliklar: "*doimo*", "*yana bir bor*", "*sodiqligini tasdiqlaydi*", "*izchil tarafdor*". Bular davlat pozitsiyasining barqarorligini ifodalaydi. To'rtinchisi – ijobiy baholovchi birliklar: "*olqishlaydi*", "*mamnuniyat bilan qayd etadi*", "*yuksak baholaydi*". Bular hamkorlik yoki kelishuv mavjudligini va u ijobiy baholanayotganini bildiradi.

O'zbek diplomatik matnlarida kuzatilgan presuppozitsion signallar ingliz tilidagi rasmiy diplomatik diskursda ham faol qo'llanadi. Inglizcha diplomatik matnlarda bunday yashirin ma'nolar, asosan, *reaffirm*, *reiterate*, *remain committed*, *welcome*, *urge*, *call on*, *concerned*, *deeply concerned*, *further strengthen*, *shared commitment*, *dialogue and diplomacy* kabi birliklar orqali yuzaga chiqadi. Bu birliklar oddiy leksik vosita sifatida emas, balki siyosiy pozitsiyani ehtiyotkorlik bilan ifodalovchi pragmatik vosita sifatida ishlaydi. Ya'ni, ular orqali davlat yoki xalqaro tashkilot o'z qarashini ochiq bosim shaklida emas, balki diplomatik, yumshoq va umumqabul qilingan qadriyatlarga tayangan holda bildiradi. Masalan, 2025-yil 12-sentabrda Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya tashqi ishlar vazirlarining Doxadagi Isroil zarbalari yuzasidan bergan qo'shma bayonotida *…We express our solidarity with Qatar and fully support the vital role it continues to play in mediation efforts between Israel and Hamas, alongside Egypt and the United States. We call for the parties to exercise restraint and seize the opportunity for peace…* [10,12]. Ushbu matnda "*we call for the parties to exercise restraint and seize the opportunity for peace*" mazmunidagi ibora ishlatilgan. Bu yerda *call for* va *exercise restraint* birliklari muhim presuppozitsion signal vazifasini bajaradi. Chunki "vazminlikka chaqirish" iborasi o'z-o'zidan vaziyatda keskinlashish ehtimoli mavjudligini bildiradi. Boshqacha aytganda, tomonlar vaziyatni yanada og'irlashtirishi mumkin, shu sababli ulardan ehtiyotkorlik talab qilinmoqda. Diplomatik jihatdan bu ibora ochiq ayblovdan qochadi, lekin mas'uliyatni tomonlarga bilvosita yuklaydi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda ingliz diplomatik matnlaridagi ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, presuppozitsiya xalqaro muloqotda juda faol va zarur pragmatik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, *reaffirm*, *reiterate*, *remain committed*, *deeply concerned*, *urge*, *welcome*, *further strengthen*, *shared commitment* kabi birliklar diplomatik bayonotlarda yashirin ma'no hosil qiladi. Ular orqali avvalgi pozitsiya, davom etayotgan majburiyat, mavjud xavf, tinchlik zarurati, xalqaro huquqiy asos va hamkorlikka tayyorlik bevosita aytilmasdan, ammo aniq anglatiladi. O'zbek va ingliz diplomatik matnlarini qiyosiy kuzatish shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda presuppozitsiya diplomatik ehtiyotkorlikning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek tilidagi "yana bir bor tasdiqlaydi", "chuqur xavotir bildiradi", "vazminlikka chaqiradi", "doimo qo'llab-quvvatlaydi" birliklari ingliz tilidagi *reaffirm*, *remain deeply concerned*, *urge all parties to exercise restraint*, *remain committed* kabi birliklar bilan funksional jihatdan mos keladi. Har ikki holatda ham asosiy maqsad bir xil: siyosiy pozitsiyani keskinlashtirmasdan bildirish, mas'uliyatni diplomatik shaklda ifodalash, xalqaro huquq va muloqotni ustuvor yo'l sifatida ko'rsatish. Shu bois diplomatik diskursda presuppozitsiya faqat yashirin ma'no hosil qiluvchi lisoniy hodisa emas, balki davlatlararo munosabatlarda tinchlik, barqarorlik, ishonch va hamkorlikni saqlashga xizmat qiluvchi muhim kommunikativ strategiyadir. Ingliz tilidagi real diplomatik matnlar tahlili ham shuni tasdiqlaydiki, presuppozitsiya orqali davlatlar o'z pozitsiyasini ochiq bosim yoki keskin bahodan ko'ra yumshoqroq, ammo ta'sirchanroq shaklda yetkazadi. Aynan shu jihati bilan presuppozitsiya diplomatik diskursning eng nozik va samarali pragmatik mexanizmlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. "O'zbek tili va adabiyoti". Toshkent, 1986, 6-son, 28–31-betlar; Nurmonov A. Ko'makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi. "O'zbek tili va adabiyoti", Toshkent, 1986, 6-son, 42–45-betlar; Rahimov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. Filol. fan. nom. ... diss. avtoref., Samarqand, 1994, 25-bet; Hakimov M. Tagma'no va tagbilim xususida ba'zi mulohazalar. "O'zbek tili va adabiyoti", Toshkent, 2001, 1-son, 30–34-betlar; Burhonov Z. O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi (presuppozitsion aspekt). Filol. fan. nom. ... diss. avtoref., Toshkent, 2008, 27-bet; Lutfullaeva D. O'rniga ko'makchili kons-

truksiyalar presuppozisiyasi. “O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 1996, 5-son, 46–48-betlar; Haynazarova M. So‘roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref., Toshkent, 1999, 25-bet.

(2). Nurmonov A., Mahmudov N. va boshqalar. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent, 1992, 113-bet.

(3). Mahkamov N. Lisoniy ortiqchalik va tejamlilik natijasida vujudga kelgan desemantizatsiya. “O‘zbek tili va adabiyoti”, T., 2002, 2-son, 25-bet.

(4). Lutfullayeva D. Tasdiq gaplarda shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik. Toshkent, “Fan”, 1997, 11–27-betlar

(5). Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. Filol. fan. nom. ...dis., Samarqand, 1994, 28–29-betlar.

(6). O‘zbekiston Respublikasi TIVning 2025-yil 13-iyundagi bayonotida Yaqin Sharqdagi vaziyat, “chuqur xavotir” va “vazminlikka chaqirish” formulalari berilgan.

(7). O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining bayonoti. 2025-yil 13-iyun. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. URL: https://gov.uz/oz/mfa/news/view/61041. Murojaat sanasi: 27.06.2026.

(8). O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining bayonoti. 2026-yil 28-fevral. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. URL: https://gov.uz/oz/mfa/news/view/137818. Murojaat sanasi: 04.07.2026.

(9). O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining bayonoti. 2025-yil 9-oktabr. Elektron manba. URL: https://gov.uz/oz/mfa/news/view/92149. Murojaat sanasi: 27.06.2026.

Yunusova Soxibaxon Abdusattorovna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Toshkent shahri; e-mail: sohibayunusova007@gmail.com)

SIYOSIY DISKURSNING NUTQ JANRI SIFATIDAGI LINGVISTIK TABIATI VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada siyosiy diskursning nutq janri sifatidagi lingvistik tabiati va kommunikativ xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi siyosiy muloqot jarayonida til vositalarining nafaqat axborot yetkazish, balki adresatga ta’sir ko‘rsatish, ishontirish, baholash va muayyan ijtimoiy-siyosiy pozitsiyani shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Maqolada siyosiy diskursning nutq janri sifatidagi o‘ziga xos lingvistik va kommunikativ belgilarini tizimlashtirish hamda ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalarini nazariy jihatdan asoslashga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *siyosiy diskurs, nutq janri, lingvistik xususiyatlar, kommunikativ xususiyatlar, kommunikativ-pragmatik funksiya, siyosiy kommunikatsiya, diskurs tahlili, pragmalingvistika.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА И КОММУНИКАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЛИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА КАК РЕЧЕВОГО ЖАНРА

Аннотация. *В данной статье исследуется лингвистическая природа и коммуникативные особенности политического дискурса как речевого жанра. Актуальность исследования обусловлена тем, что в процессе политической коммуникации языковые средства выступают не только средством передачи информации, но и средством воздействия на адресата, убеждения, оценки и формирования определённой общественно-политической позиции. В статье особое внимание уделяется систематизации специфических лингвистических и коммуникативных признаков политического дискурса как речевого жанра, а также теоретическому обоснованию их коммуникативно-прагматических функций.*

Ключевые слова: *политический дискурс, речевой жанр, лингвистические особенности, коммуникативные особенности, коммуникативно-прагматическая функция, политическая коммуникация, дискурсивный анализ, прагмалингвистика.*

THE LINGUISTIC NATURE AND COMMUNICATIVE FEATURES OF POLITICAL DISCOURSE AS A SPEECH GENRE

Annotation. *This article examines the linguistic nature and communicative features of political discourse as a speech genre. The relevance of the study is determined by the fact that, in the process of political communication, linguistic means function not only as a means of conveying information but also as a means of influencing the addressee, persuading, evaluating, and shaping a particular socio-political position. The article focuses on systematizing the specific linguistic and communicative features of political discourse as a speech genre and theoretically substantiating their communicative-pragmatic functions.*

Keywords: *political discourse, speech genre, linguistic features, communicative features, communicative-pragmatic function, political communication, discourse analysis, pragmalinguistics.*

Kirish. Siyosiy diskurs – bu nafaqat siyosiy subyekt va auditoriya o‘rtasidagi kommunikativ vosita, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, muayyan siyosiy g‘oyalar, qadriyatlar va qarashlarni ommalashtiruvchi hamda jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim diskursiv mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va zamonaviy raqamli kommunikatsiya